

**“BOBURNOMA”DAGI AYRIM OYKONIMLARNING
LINGVOGEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

Jalilova Madina Murotovna

NamDU 10.00.01- O‘zbek tili ixtisosligi

bo ‘yicha mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi ayrim oykonimlar tarkibidagi kent indikatorining lingvogeografik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: oykonim, indikator, variant, dromonim, oronim, areal, lingvogeografiya.

Аннотация. В статье изучаются лингвогеографические особенности показателя кент в произведении в “Бобурноме” Захириддина Мухаммада Бабура.

Ключевые слова: ойконим, индикатор, вариант, дромоним, ороним, ареал, лингвогеография.

Abstrakt. In the article, the linguogeographic features of the city indicator in some of the names in the work “Boburnoma” by Zahiriddin Muhammad Babur are studied.

Key words: oikonym, indicator, variant, dromonym, areal, linguogeography.

“Boburnoma”da tasvirlangan oykonimlarni kuzatar ekanmiz, ular tarkibida *kat*, *kent*, *kand* indikatorlari (lot. indikator – aniqlagich, ko‘rsatkich) [2:34] keng qo‘llanganligini guvohi bo‘lamiz. Indikatorlardan biri *kat* – *shahar* degan ma’noni bildiradi. Bu terminga Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham sharh berilgan. V.V.Bartoldning fikricha, *kat* (*kand*) – sug‘d tiliga mansub so‘z bo‘lib, dastlab, *uy*, *yashash manzili* degan ma’noni anglatgan va keyinchalik turkiy tillarga o‘zlashgan. Ma’lumki, Z.Do‘simov indikator (aniqrog‘i, toponimik indikator) atamasini o‘zbek onomastikasiga ilk marotaba olib kirgan edi. U joy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

nomlari tarkibida qatnashib, ular ifodalagan obyektning turini, xarakterini bildiruvchi lug‘aviy birliklarni indikatorlar deb izohlagan. [4:71-74].

Olimlar *kat* (*kass*) va *kent* (*kand*) aslida sug‘dcha bir so‘zning variant ekanligini aniqlashgan [9:31]. O‘zbekiston toponimlari tarkibida eng ko‘p keladigan indikatorlar *kat* (*kass*) va *kent* (*kand*) *qishloq*, *shahar*, *manzilgoh* degan ma’noni bildirgan. Memuarda yuqoridagi indikatorlar bilan ifodalangan 10 ta oykonim (*Axsikat* (*Aksi*), *Banokat* (*Shohruhiya*), *Navkand*, *Piskent* (*Bishkent*), *Dahkat*, *Yorkand*, *Lotkand*, *Toshkand*, *Fanokat*, *Farkat*) va 1ta dromonim (*Archakent yo‘li*) hamda 1 ta oronim (*Yettikent tog‘lari*) keltirilgan. Demak, Bobur davrida ham bu indikatorlari bilan yasalgan toponimlar ancha faol bo‘lgan.

Eroniy tilli hududlarda *kat*, turkiy tilli hududlarda esa *kent* aniqlagichli *qishloq*, qo‘rg‘on, *shahar*, nomlari aniqlangan [11:63]. Biroq biz memuarda turkiy tilli hududlarda ham *kat* so‘zli oykonimlar faol qo‘llanganligini guvohi bo‘ldik. Jumladan: *Sayxun suyining shimoli tarafidag‘i qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitirlar...Farg‘onada, Andijondin so‘ngra mundin ulug‘roq qasaba yo‘qtur* [10:36]. *Aksi* oykonimi haqida X asrda yaratilgan “Hudud ul-olam” asarida *Axsikat* tarzida ikki o‘rinda qo‘llangan.

Memuarda, shuningdek *Banokat* shahri tasvirlangan: *Ma’muraning kanorasida voqi bo‘lubtur, sharqi Farg‘ona va Koshgar, g‘arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyakim, Shosh va Banokat bitirlar* [10:59]. *Banokat* – Shohruxiya qo‘rg‘onining o‘rnidagi qadimiy shahar. Chingizzon tomonidan vayron qilingan, Amir Temur qaytadan tiklab, kenja farzandi Shohrux nomi bilan atagan. Qoldiqlari Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida (hozirgi Oqqo‘rg‘on tumanida) saqlanib qolgan [3:79]. Memuarda *Shohruxiyaning* qadimgi nomi *Banokat* ekanligi ta’kidlangan. Bobur memuarda bir o‘rinda bu shaharni *Fanokat* variantida tilga olgan: *Sayxun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurdur, sharq-u shimol tarafidin kelib, bu viloyatning ichi bila o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli va Fanokatning janubiy tarafidinkim, holo Shohruxiyag‘a mashhurdur, o‘tub yana shimolg‘a mayl qilib, Turkiston sori borur* [10:34]. Bu shahar ilk bor Muqaddasiy asarida tilga olingan [11:49]. Demak *kat* indikatorli *qishloq*, shahar nomlari faqat

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

eronyi tilli hududlarda emas, turkiy tilli hududlarda ham faol qo'llanilgan.

Kat (*kent*) so‘zi ishtirokida paydo bo‘lgan geografik nomlar eng qadimiy toponimlar hisoblanadi. *Kat* terminating areali juda keng va u butun Yevroсиyo materigi bo‘ylab tarqalgan. Bu esa toponimlarning asl kelib chiqishi bir-biriga yaqin ekanligidan va uzoq tarixiy-geografik o‘tmishda xalqlar orasida mustahkam aloqalar mavjudligidan dalolat beradi. Chunonchi, memuarda keltirilgan *Toshkand* (O‘zbekiston), *Dahkat* (Tojikiston), *Yorkand* (Xitoy) kabi ko‘plab tarixiy toponimlar bunga misol bo‘la oladi: *Men Muhammad Husayn mirzo bila so‘zlashib, O‘ratepaning kentlaridan Dahkat degan yerda qishlamoq bo‘ldum* [10:86]. *Dahkat* O‘ratepa va Mascho viloyatlarini ajratib turuvchi tog‘ etagidagi qishloq bo‘lib, O‘ratepa hokimi Muhammad Husayn Dug‘lat taklifi bilan Bobur shu yerda qishlagan. *Dahkat* oykonimi tarkibidagi *dah* so‘zi fors-tojikcha *o‘n*, ya’ni *o‘n qishloq* ma’nosini anglatgan. Demak, *kat* termini shaharlarga nisbatan ham, qishloqlarga nisbatan ham ishlatilgan. Shuningdek, qaysi hududdagi nomlar tarkibida bo‘lishidan qat’i nazar, *qishloq*, *qo‘rg‘on*, *shahar* ma’nosini bildirgan.

Yana shunday komponentli toponimga Toshkent viloyatidagi qadimiy shahar *Farkat* kiradi: *Hazrati Xojago Xoja Samarcandtin chiqib kelib, Farkatta o‘lturub edilar* [10:87]. X asrga mansub “Hudud-ul olam” asarida *Farkas* tarzida keltirilgan [3:523]. Hozirda esa *Parkent* deb ataladi. Demak, *kas* va *kat* so‘zlari *kent* so‘zining tarixiy shakllari bo‘lgan va o‘tmishda toponimlarni yasashda faol ishtirok etgan.

E.M.Murzayev *kat* terminining hind-yevropa, fin-ugor, turk va mo‘g‘ul tillarida bir qancha variantlari borligini qayd etgan [5:56].

“Boburnoma” asarini o‘rganar ekanmiz, asarda *kat*, *kent*, *kand* indikatorlarining hindcha varianti *pur* termini, asosan, Hindiston, qisman Kobul (Afg‘oniston) hududidagi oykonimlar tarkibida faol qo’llanilganligini guvohi bo‘lamiz. Memuarda jami 21 ta Hindiston hududidagi *pur* aniqlagichli oykonimlar (*Abapur*, *Burhonpur*, *Bujpur*, *Bahlo‘lpur*, *Dipalpur*, *Dahpur*, *Diydapur*, *Do‘lpur*, *Jo‘npur*, *Manikpur*, *Nanupur*, *Odampur*, *Piro‘zpur*, *Sultonpur*, *Sarangpur*, *Ratanbo‘r* (*Qozon bosmasida Ratanpur*) *Sekandarpur*, *Udaypur* (*Dungarpur*),

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Fatxpur, G'ozipur, Hojipur) va 1 ta Kobuldagi (*Odinapur*) oykonimlar tilga olingan. Bugungi kunda ham *pur* bilan yasalgan oykonimlar mavjud bo'lib, V.A.Juchkevichning fikricha, Hindiston xaritasida *pur* indikatorli 500 dan ortiq shahar nomi mavjud [6:309].

Hindiston toponimiysi dunyodagi eng murakkab va shu bilan birgalikda kam o'rganilgan. Bu aholining etnik va til xilma-xilligi hamda murakkab ming yillik tarixga egaligi bilan izohlanadi. Mintaqadagi ko'pgina geografik nomlar qadimgi hind tili sanskritiga borib taqaladi. Janubiy Osiyoning ko'plab zamonaviy tillari (hind, bengal, panjob, urdu va boshqalar) sanskrit tili asosida shakllangan. Shuning uchun joy nomlari ushbu til bilan bog'liq, masalan, *pur – shahar* (*Hindistonda Kanpur, Jabalpur, Jodxpur, Pokistonda Bhavalpur, Nepalda Lalitpur, Bangladeshda Chandpur*) uchratish mumkin [1:148].

V.A.Kocherginaning "Санскритско-русский словарь" kitobi 30000 so'zni o'z ichiga oladi va ular orasida biz quyidagilarni topamiz: *puru-shaxs, qabila; puru-urug'*, *qabila, paura-shaharlik* degan ma'noni anglatadi [6:402]. Shuningdek, V.A.Kocherginaning "Учебник санскрита" kitobida *pur* so'zi *shahar, pura-qal'a* degan ma'nolarni anglatishini qayd etgan [8:22,160].

Shunday qilib, shahar va qishloq nomlari tarkibida keluvchi *pur* so'zi, asosan, hind joy nomlari tarkibida kelgan. Qadimgi Aryan madaniyatining muqaddas tili bo'lган sanskrit tilida *shahar* va *qal'a* degan ma'nolarni anglatib, u sanskrit tilidagi *pura* so'zidan olingan. Masalan, asardagi *Fathpur* shahri tahlilida ko'rishimiz mumkin: *O'rdu Fathpurda tushub edi, Fathpurda bir kun turub, shanba sahari vuzu qilib, otlanib, Rapriyning yovug'ida namozi bomdodni jamoat bila o'taduk.* [10:248]. Jamna daryosi sohilida joylashgan bu shahar ikki so'zdan tashkil topgan bo'lib, *fath* arabcha ochish, ochilish, egallash, zabit etish, g'alaba, bosib olish kabi ma'nolarni anglatadi [12:335]. Demak, *Fathpur – g'alaba shahri* degan ma'noni ifodalab, arabcha va sanskriticha so'zlar birikmasidan hosil bo'lган.

Hindiston shaharlarini o'rganar ekanmiz, ular tarkibidagi *pur* ma'lum ma'noda har bir joy haqida noyob hikoyalar so'zlaydi. Jumladan: *Pahorxonni bosib Laho'r va Dipalpuri'i fath qilg'ai yili keyla kelturub, ekturub edim, sabz bo'lub edi*

[10:110]. Dipalpur buyuk tarixiy o‘tmishga ega va juda qadimiy shahardir. U hozirgi Pokistonning Panjob viloyatida, Ravi daryosi bo‘yida joylashgan 2000 yillik tarixga ega shahar [3:225]. Ko‘pgina *pur* indikatorli shaharlarga qirollar tomonidan nom berilgan. Ular ko‘pincha qirollik nomlariga *pur* so‘zini qo‘sib yangi nomlar (oykonimlar) hosil qilishgan. Masalan, Dipalpur so‘zma so‘z tarjimada *Dipa shahri* deb tarjima qilingan bo‘lib, uning asoschisi Paramara sulolasasi hukmdori Raja Depa Chand Bhatti (hukmronlik qilgan 1216-40) sharafiga nomlangan.

Yana shunday o‘z ismini tarixga muhrlagan shohlarni nomi aks etgan oykonimlarga memuarda keltirilgan Bahlo‘lpur misol bo‘ladi: *Yo‘ldin borib, Bahlo‘lpurkim, xolisa edi, sayr qilduk* [10:186]. Bahlo‘lpur Chinob daryosi bo‘yidagi baland jarlik ustida joylashgan qal’a (hozir Pokistonning Panjob viloyatida) bo‘lib, bu qal’aning nomi Lo‘diylar sulolasining asoschisi, Ibrohim Lo‘diyning bobosi Bahlul Lo‘diy (1451-1489) nomi bilan bog‘liq.

Keltirilgan dalillarga asoslanib, Udaypur shahri ham uning hokimi nomi bilan bog‘liq deb ayta olamiz: *Az jumla Raval Uday Sing Bagariyki, volii viloyati Udaypur buda va duvozdah hazor suvor doshta...* [10:229]. Udaypur Hindistonning Rojastan shtati hududidagi viloyat va shahar bo‘lib, bizningcha, shahar nomi uning rojası Raval Uday Sing Bagariy nomi bilan atalgan. Do‘lpur (Dholpur, Daulpur), Jo‘npur shahar nomlari ham uning rojalari nomi bilan bog‘liq. Demak, Hindiston hududidagi oykonimlar asar leksik tarkibining bir qismi bo‘lib, tarixiy voqealar va hukmronlik qilgan shoh va rojalar taqdirining ko‘zgusidir. Shuningdek, **Do‘lpur (Dholpur, Daulpur)** – Rajastan shtatining janubiy qismida, Chambal daryosi yaqinida joylashgan tarixiy shahar. *Roja Dholan* tomonidan asos solingan. Bobur Do‘lpurni xolisa deb e’lon qilgan va u yerda bog‘-rog‘lar yaratib obod maskanga aylantirgan: *Do‘lpurni xolisa qilib, shiqdorlig ‘ini Abulfath turkmang ‘a inoyat qilib, Do‘lpurg‘a yiborildi.* [10:217-b]. Demak, shahar uning asoschisi *Roja Dholan* sharafiga *Dholpur* deb atalgan. Keyinchalik fonetik o‘zgarishga yuz tutib *Do‘lpur* deb atalgan.

Jo‘npur (Jaunpur) – hozirgi Hindistonning Uttar Pradesh shtatidagi shahar. Bobur Dehlini egallaganidan keyin, Jo‘npur Humoyun tomonidan

egallangan: *Ham ushbu kun G‘iyosiddin qo‘rchikim, o‘olti kunluq buljor bila Jo‘npurg‘a borib edi, keldi.* [10:246-b]. Shahar nomi Juana Xon xotirasiga qo‘yilgan. 1359-yilda shahar Dehli sultonи Feruzshoh Tug‘loq tomonidan bosib olindi va uning amakivachchasi Muhammad bin Tug‘luq xotirasiga atalgan, uning ismi Jauna Xon edi. Demak, Juanapur – Juana shahri ma’nosini anglatgan.

Xulosa qilib aytganda, *kat* (*kent*) so‘zi ishtirokida paydo bo‘lgan geografik nomlar eng qadimiy toponimlar hisoblanadi. *Kat* terminating areali juda keng bo‘lib O‘rta Osiyoda keng tarqalgan, shuningdek u butun Yevroosiyo materigi bo‘ylab tarqalgan. *Kat* termini shaharlarga nisbatan ham, qishloqlarga nisbatan ham ishlataligan. Shuningdek, qaysi hududdagi nomlar tarkibida bo‘lishidan qat’i nazar, qishloq, qo‘rg‘on, shahar ma’nosini bildiradi.

Kat (*kent, kand*), *pur* indikatorlari turli tillardagi so‘zlar bo‘lsa-da, bir umumiy ma’noni anglatib, oykonimlar hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Басик С.Н. Общая топонимика. – Минск, 2006.
2. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати.– Наманган, 2006. – Б.81.
3. Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014.
4. Дўсимов З. Топонимик индикаторлар //ЎТА. №5. – Тошкент, 1972.
5. Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016.
6. Жучкевич В.А. Общая топонимика. – Минск: Вышешая школа, 1968.
7. Кочергина В.А. Санскритско-русский словарь. – М: Русский язык, 1987.
8. Кочергина В.А. Учебник санскрита. – М: Филология, 1994.
9. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006.
10. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент: Шарқ , 2002.
11. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2022.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. www.ziyouz.com kutubxonasi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

13. Дўсимов З. Топонимик индикаторлар //ЎТА. №5. – Тошкент, 1972. – Б.71-74.